

Shodibek KASIMOV,

Guliston davlat universiteti dotsenti,
E-mail: shukrona1141603@mail.ru

Alimjon MATCHANOV,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Bioorganik kimyo instituti tajriba-texnologik laboratoriya mudiri
E-mail: olim_0172@mail.ru

JDPU kimyo fanlari doktori, Sultonov M. taqrizi asosida

SOME PHYSICAL AND CHEMICAL DIMENSIONS OF SUPRAMOLECULAR COMPLEXES OF GLYCYYRHIZIC ACID AND ITS SALTS WITH GALLIC ACID

Annotation

In this state, glycyrrhizic acid and its products are present in several different ratios of gallic acid, i.e. 1:2; 1:4; Information is provided on methods for obtaining new supramolecular compounds obtained in a molar ratio of 1:8, and some physicochemical properties of the resulting compounds. The results of the analysis of the chemical structure obtained by a new method of IR and UV spectroscopy are presented.

Key words: molar ratio, glycyrrhizic acid, gallic acid, spectrum, IR and UV spectroscopy, structure, physiologically active compounds.

НЕКОТОРЫЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ РАЗМЕРЫ СУПРАМОЛЕКУЛЯРНЫХ КОМПЛЕКСОВ ГЛИЦИРРИЗИНОВОЙ КИСЛОТЫ И ЕЕ СОЛЕЙ С ГАЛЛИРОВОЙ КИСЛОТОЙ

Аннотация

В данной статье глицирризиновая кислота и ее производные представлены в нескольких различных соотношениях галловой кислоты, т.е. 1:2; 1:4; Приведены сведения о методах получения новых супрамолекулярных соединений, полученных в мольном соотношении 1:8, и некоторых физико-химических свойствах полученных соединений. Представлены результаты анализа химической структуры полученных новых соединений методами ИК- и УФ-спектроскопии.

Ключевые слова: молярная соотношения, глицирризиновая кислота, галловая кислота, спектр, ИК- и УФ-спектроскопия, строение, физиологически активное соединение.

GLITSIRRIZIN KISLOTA VA UNING TUZLARINING GALL KISLOTASI BILAN SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARINING AYRIM FIZIK-KIMYOVIY KATTALIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada glitsirrizin kislotasi va uning hosilalari bilan gall kislotasining bir necha xil ya'ni 1:2; 1:4; 1:8 molyar nisbatlarda olingan yangi supramolekulyar birikmalarini olish usullari va olingan birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar berildi. Olingan yangi birikmalarning kimyoviy tuzilishini IQ- va UB-spektroskopiya usullaridagi taxlil natijalari keltirildi.

Kalit so'zlar: molyar nisbatlar, glitserrizin kislotasi, gall kislotasi, spektr, IQ- va UB-spektroskopiya, struktura, fiziologik faol birikma.

Kirish. Mamlakatimiz o'simlik dunyosiga boy bo'lib, ulardan ajratib olinadigan biologik faol va oshlovchimoddalar oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Shuni hisobga olganda, hozirda o'simlik moddalarining kimyoviy tarkib va xossalarni tadqiq qilish hamda ularni modifikatsiyalashning amalga oshirilishiga qiziqish ortib bormoqda.

Mamlakatimizda A.A.Toychiev, D.N.Dalimov, A.A. Axunov, H.H.Qo'shiev, A.D.Matchanov, M.B.Gafurovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ayrim qishloq xo'jaligi o'simliklarining o'sish va rivojlanishiga fiziologik faol moddalarining ta'siri tadqiq qilingan. Shunga ko'ra, tabiiy birikmalarni olish va ular asosida supramolekulyar komplekslarini olish, fizik-kimyoviy va o'simliklarining o'sishi hamda rivojlanishiga ta'sirini aniqlash bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ko'p xollarda modifikatsiyalangan tabiiy birikmalar o'zining ba'zi fizik va kimyoviy xossalari jixatidan tabiiy moddalaridan ustunlik jixatlariga ega. Yuqorida ko'rsatilgan moddalar qatoriga glitsirrizin kislotasi va uning hosilalarini kiritish mumkin.

GK va ularning hosilalari asosida dori vositalari yaratilishida uning gel hosil qilish xususiyati asosiy omillardan bira bo'lib hizmat qiladi [1-2].

Shuni e'tiborga olgan holda ushbu tadqiqot ishida glitsirrizin kislotasi va uning monoalmashingan hosilalarining gall kislotaga ta'sirining kimyoviy mexanizmi va uning tuzilishini IQ- va UB- spektroskopik analiz usullarida tadqiq qilishni maqsad qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gall kislotasi tarkibi $C_6H_2(OH)_3COOH$ dan iborat bo'lgan polifenol birikmadir. Gall kislotasi monogidrat shaklida bo'lib, rangsiz kristall modda. Erish harorati 220-221°C. Eruvchanligi (g 100 ml erituvchida): suvda - 1,16 (25 °C), 33 (100°C); etanol-27,2 (25 °C); efir-2,5 (15 °C) [3]. Ishqoriy eritmalarida gall kislotasi kislorodni yutadi. Ohak suvi (kaltsiy gidroksid) va ammiak bilan gall kislotasi oq cho'kmalar hosil qiladi. Tanninlardan farqli o'laroq, gall kislotasi jelatinni cho'ktirmaydi. U qizdirilganda oltin va kumush tuzlarini qaytara oladi, shuningdek, kislotali kalin permanganat eritmasini beradi. Feling suyuqligi gall kislotasi bilan kamaymaydi. Gall kislotasi tabiatda eng ko'p uchraydigan organik kislotalardan biridir [3-4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishini maqsadi gall kislotasining tanlovchanlik xususiyatini oshirish va ularning suvda eruvchanlik muammolarini hal etish orqali farmakologik ta'sirini kengaytirish, zaharlilik darajasini

kamaytirish maqsadida glitserizin kislotosi (GK) hosilalari bilan supramolekulyar birikmalarini olish va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqot avvalida glitsirizin kislota (GK) va uning monoammoniyli tuz (GKMAT) bilan gall kislotosining 1:2, 1:4, 1:8 nisbatlardagi supromolekulyar birikmalar olindi. So'ngra ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi. Sintez qilingan birikmalar tuzilishi IQ- va UB- spektroskopiya usullarida tadqiq qilindi.


Tahil va natijalar. GKMAT bilan gall kislotosining 1:2, 1:4, 1:8 nisbatlarda supromolekulyar birikmalarini olish uchun yangi sintez qilingan GK ning monoammoniyli tuzi, gall kislota, organik erituvchilaridan; xloroform, benzol, atseton "k.t.", etil spirti "t.", atsetonitril, dietilefir, sulfat kislotalardan foydalanildi.

Dastlabki va sintez qilingan moddalarning tuzilishi IQ spektrlari - Elmer System 2000 FT-IR (Yaponiya) spektrometrida, UB spektri -UB 1280 spektrometrlarida (Yaponiya) tadqiq qilindi.

Ma'lum miqdordagi GK ga aralashtirib turgan holda etil spirti muhitida tanlangan qulay sharoitlarda gall kislota ta'sir ettirildi. Reaktsiya oxiriga etgach, reaktsion aralashma filtrlab olinib, erituvchi rotorli bug'latgich yordamida vakuumda haydab olindi, suvli qismi liofil quritgichda quritildi. Olingan supromolekulyar kompleks suvda yaxshi eriydi, 183 °C da parchalanadi.

-Gall kislotosining GK (1:2) hamda GKMAT bilan 1:2, 1:4 va 1:8 nisbatlarda supromolekulyar komplekslari quyidagi umumiyl 1-sxemaga asosan olindi.

1-sxema



Gall kislotosining GKMAT bilan 1:2, 1:4 va 1:8 nisbatlarda supromolekulyar komplekslari suv-spirt sistemasida olindi. Olingan komplekslarning fizik-kimyoviy kattaliklari hamda eruvchanligi aniqlandi. Hosil qilingan supromolekulyar komplekslar och sariq rangli kukun holidagi moddalar bo'lib, barcha komplekslar suvda va suv-organik erituvchilaridan iborat sisitemalarda yaxshi eriydi, toza organik erituvchilarida esa erimaydi. Sintez qilingan moddalarning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

GK gallat tuzi va GKMAT ning gall kislota supromolekulyar komplekslarining ba'zi fizik-kimyoviy tavsiflari


Nº	Sintez qilingan moddalar	Mol nisbatlar	T _{suyluq} , °S (par)	Unum %	Eruvchanlik
1	GK:GallK	1:2	183±3	98	Suv, suv-ethanol, suv-atsetonitril
2	GKMAT :GallK	1:2	192°C ± 1	98	Suv, suv-ethanol, suv-atsetonitril
3	GKMAT: GallK	1:4	194°C ± 1	97	Suv, suv-ethanol, suv-atsetonitril
4	GKMAT: GallK	1:8	195°C ± 3	6	Suv, suv-ethanol, suv-atsetonitril

GKMATning supromolekulyar komplekslari GK xosil qilgan komplekslarga nisbatan suvda eruvchanligi yuqori. Bundan tashqari GK va GKMATning bir xil modda bilan hosil qilgan komplekslarining biologik faolligi turlichadir.

Ma'lumki, IQ-spektroskopiya tekshirilayotgan modda tarkibidagi atom va molekulalarning tebranma harakati bilan bog'liq bo'lgan nazariyaning asosini tashkil etadi.

Bu usul yordamida alohida reagentlar va komplekslarning spektridagi yutilish chiziqlari orasidagi farqlar asosida yangi ta'sirlashuv hamda hosil bo'lgan yangi bog'lanishlar haqida xulosa chiqarish imkonini mavjudligini hisobga olib, tadqiqotlarimiz natijasida olingan yangi supromolekulyar komplekslarning tuzilishini tadqiq qilish uchun IQ – spektroskopiya usulidan foydalanildi.

Molekulalardagi atomlar va atom guruhlariga xos bo'lgan tebranishlar shakli ayni chastotada tebranayotgan barcha atomlarning tebranish amplitudasiga va o'z navbatda, normal tebranish vaqtidagi kimyoviy bog' uzunligi va bog'lararo burchakning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Agar molekula tebranishi natijasida atomlararo kimyoviy bog' (yoki bog'lar) qisqarsa yoki uzaysa molekuluning bunday xarakati shakli valent tebranish deb ataladi. Valent tebranishlar soni molekuladagi kimyoviy bog'lar soniga teng bo'ladi [5].



1-rasm. Gall kislota va GKMATning 2:1 nisbatidagi kompleksining IQ- spektri.

Alohida Gall kislotaning IQ- spektiri va GKMATning Gall kislota bilan 1:2 nisbatidagi supromolekulyar kompleksining IQ- spektiri taqqoslanganda taxlit natijalari ko'rsatishicha, supromolekulyar komplekslarning spektrlarida

kompleks birikmalar tarkibidagi gidroksil (OH) guruhlarning valent tebranishlari $3228,84 \text{ cm}^{-1}$ sohada kuzatilgan bo`lsa, 8-oksixinolinda gidroksil (OH) guruhlarning valent tebranishlar $3028,24 \text{ cm}^{-1}$ sohada namoyon bo`ladi. supramolekulyar kompleksdagi karboksil guruhi karbonilarining valent tebranishlari $1722,43$ - $1656,85 \text{ (CO) cm}^{-1}$ sohalarda kuzatilsa, GK tarkibidagi karboksil guruhlarining karbonillari valent tebranishlari $1725-1690 \text{ cm}^{-1}$ sohada kuzatiladi (1-rasm).

Kompleks molekulasiidagi (CH_2-CH_3) guruhlarga tegishli $1591,17 \text{ cm}^{-1}$ tebranishlar, GK tarkibidagi $1454,33 \text{ cm}^{-1}$ (CH_2-CH_3) sohada kuzatiladi. Spektral sohalardagi yutilish chiziqlari orasidagi tegishli farqlar yangi ta'sirlashuv hamda hosil bo`lgan yangi bog'lanishlar haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Olingan yangi supramolekulyar komplekslarning UB-spektrlari va IQ-spektrlарining qiyamatlari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval


Olingan moddalarining UB-spektr va IQ-spektrlari

Nº	Olingan moddalar	UB-spektr (50 % etanol, λ_{\max} , nm) (lge)	IQ-spektr (ν , cm^{-1})
1	GK: GallK	257(4,7)	$3375(\text{OH}), 2920,23-2858,15(\text{CH}), 1714,72(\text{C=O}), 1645,28(\text{C=O}), 1595,13(\text{CH}_2-\text{CH}_3), 1556,559(\text{CH}), 1504,48-1454,33(\text{CH}), 1386,82(\text{COO}), 1307,74-1261,45(\text{CH}), 1211,30(\text{CH}), 1165(\text{C-O-C-C-OH}), 1041,56(\text{C-O-C-C-OH}), 981,71(=\text{CH})$
2	GKMAT: GallK (1:4)	258(4,9) 222(4,3)	$\nu(\text{OH}_2)=3319, \nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2948, \nu(\text{C}=O)=1716, \nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1621, \nu(\text{COO})=1595, \delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1452, \delta(\text{CH})=1347, 1212, \delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1173, \nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1032, \delta(\text{C})=978$
3	GKMAT: GallK (1:8)	257(4,8)	$\nu(\text{OH}_2)=3387, \nu(\text{CH}, \text{CH}_2, \text{CH}_3)=2942, \nu(\text{C}=O)=1700, \nu(\text{C}_{11}=\text{O}, \text{C}=\text{C})=1645, \nu(\text{COO})=1590, \delta(\text{CH}_2, \text{CH}_3)=1388, \delta(\text{CH})=1362, 1213, \delta(\text{C}-\text{O}-\text{C}, \text{C}-\text{OH})=1172, \nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})=1031, \delta(\text{C})=980$

Adabiyotlarda qayd etilishicha, GK molekulasingin "mehmon-mezbon" holidagi klatrat birikmalar hosil qilish xususiyati, uning tibbiyotda qo'llaniladigan bir qator dori vositalari bilan bir qator supramolekulyar komplekslarni olish va ularning molekulyar kapsullash samarasi hisobiga faolligini oshirish hamda davolash indeksini kengaytirish maqsadida qo'llanilgan [6-7].



Odatda supramolekulyar birikmalar hosil bo'lish jarayonida mezbon molekulada bir necha bog'lanish hosil qiluvchi faol markazlar mayjudligi va bu molekuladagi komplementarlik xususiyati mezbon molekulaning mehmonlarni aniq belgilangan tuzilma bo'yicha tanlab olish imkonini beradi. Bu esa mezbon va mehmon molekulalarning geometrik tuzilishi ya'ni retseptor molekulasiidagi bo'shlinqning diametri substrat molekulasingin radiusiga mos kelishi kerakligi bilan izohlanadi [8].

GKMATning Gall kislota bilan supramolekulyar komplekslari stekiometrik tarkibi Ostromo'slenskiy-Jobanining izomolyarli tizim metodi bilan aniqlandi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, komplekslarning tarkibiy qismlari 2:1 nisbatda hosil bo'ladi. Quyidagi grafikaviy egri chiziqda ko'rsatilganidek, komponentlarning nisbatiga ko'ra optik zichlikning o'zgarishidan kompleksning izomolyar tizimi ko'rsatkichi $\approx 2,0$ ga teng bo'lib, shunga asosan kompleksdagi komponentlar nisbati 2:1 nisbatda bo'lishi qayd qilindi (2-rasm).



2-rasm. $\lambda=212 \text{ nm}$ da ($S_{\text{GallK}}=10^{-4} \text{ M}$, $S_{\text{GKMAT}}=10^{-4} \text{ M}$, $\text{pH}=7,2$) komponentlar izomolyar tizimi nisbatiga ko'ra optik zichiligi (ΔA) ning o'zgarishi.

Supramolekulyar kompleks (I) tizimi egri chizig'iga ko'ra ko'rsatilganidek, 240 va 300 nm oralig'idagi nuqtalarda spektrlarning yutilishi kuzatiladi (3-rasm). Ma'lumki, spektrdag'i izobestik nuqtalarning mavjudligi ma'lum oraliqda sistemadagi komponentlardan bitta tipga mansub kompleks shakllanganligini izohlaydi. Shunga ko'ra eritmada GKMAT va GallK komponentlari asosida GKMAT: GallK kompleksi aniqlandi:



3-rasm. Eritmalarning izomolyar seriyasida spektrlarning yutilish egri chizig'i (S_{GallK} q 10^{-4} M , S_{GKMAT} q 10^{-4} M , $\text{pH}=7,2$).

Tarkibi 2:1 nisbatda bo'lgan eritmadiagi komplekslar nisbatli bo'yicha K koeffitsienti hisoblanib, shu asosida kompleks hosil bo'lish jarayoni uchun Gibbs erkin energiyasi (ΔG) hisoblandi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib Gall kislotaning GKMAT bilan olingen supramolekulyar komplekslari stabillashishida GKMAT molekulasi tarkibidagi korbonil guruhi kislorodi va Gall kislotaning molekulasidagi gidroksil guruhi hamda o'zida umulashmagan juft elektronlarni saqlagan azot atomi molekulalararo dipol-dipol o'zaro ta'sir va vodorod bog'lari ishtirok qilishi aniqlandi.

Kompleks birikmalar vodorod bilan bog'lanadigan qo'shimcha umumlashmagan juft elektronlar yordamida elekromanfiyliги yuqori bo'lgan atom saqlagan ta'sirlashayotgan molekulalar orasida ikki juft atomlarning o'zini-o'zi yig'ishi jarayoni supramolekulyar birikmaning hosil bo'lishi asosida yuzaga kelishi imkonini beradi.

GKMATning Gall kislota bilan 1:2, 1:4, 1:8 nisbatlardagi supromolekulyar komplekslari va GK ning gallat tuzini olish metodikasi ishlab chiqildi, ularning fizik kimyoviy xossalari o'rganilib, tuzilishi IQ- va UB- spektroskopiya usulida tadqiq qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Г.А.Толстиков, Л.А. Балтина, Э.Э Шульц, А.Г Покровский// Глицерризиновая кислота. 1997. Т 23. № 9 С.691-709.
2. Г.А.Толстиков, Л.А.Балтина, В.П.Гранкина и др. Солодка биоразнообразие, химия, применение в медицине. Новосибирск. "ГЕО". 2007. 312 с.
3. Гауптман З., Грефе Ю., Ремане Х. Органическая химия. – Москва: "Химия", 1979. – 531-536 с.
4. Y. Absalan, E. A. Fortalnova, N. N. Lobanov, E. V. Dobrokhotova, O. V. Kovalchukova, J. Organometal. Chem., 2018, P.859, 80.
5. Крылов А.С., Втюрин А.Н., Герасимов Ю.В. Обработка данных инфракрасной Фурье-спектроскопии, Методич. пособие, №832 Ф., Красноярск, Институт физики СО РАН, 2005, 48 с.
6. Юлдашев Х.А., Абдушукурова С.Э., Выпова Н.Л., Гафуров М.Б. Противовоспалительная активность супрамолекулярных комплексов некоторых производных глицерризиновой кислоты с ацетилсалициловой кислотой // Академик С.Ю. Юнусов хотирасига бағишиланган ёш олимлар илмий анжумани ЎМКИ: Тез. тўп. 18-19 март 2004. – Тошкент, 2004. - Б 65.
7. Далимов Д.Н., Мухамедиев М.Г., Хамидова Г.Р., Гафуров М.Б., Абдуллаев Н.Дж., Левкович М.Г., Юлдашев Х.А., Матчанов А.Д.. Физико-химические свойства водных растворов клатратовmonoаммониевой соли глицерризиновой кислоты с бензойной и салициловой кислотами. Полимерлар фанининг хозирги замон муаммолари.-Тошкент.-2011-Б.164-165.
8. Дж. В. Стид, Дж.Л. Этвуд Супрамолекулярная химия. – Москва: ИКЦ “Академкнига”, 2007. - Т №1. - 480 с.